

SMM TADQIQOT LOYIHALARINI BOSHQARISH HAMDA ÒQUVCHILARGA FACEBOOK TARMOÒIDA SAHIFA OCHISHNI ÒRGATISH

Erkinova Odinaxon Kozimjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Aniq fanlar fakulteti Matematika va informatika yònalishi 2 – bosqich talabasi

Alijonov Shohruhbek Akramjon o`g`li

Andijon davlat pedagogika instituti Aniq fanlar fakulteti Matematika va informatika yònalishi 1 – bosqich talabasi

Ismoilova Mohlaroyim Muhammadishoq qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Aniq fanlar fakulteti Matematika va informatika yònalishi 1 – bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab òquvchilariga SMM loyihalarini qanday boshqarish va Facebook ilovasida sahifa ochish haqida ma'lumotlar berilgan. Maqola davomida Facebookning yaratish tarixi va u haqida qiziqarli faktlarga guvoh bòlasiz.

Kalit sózlar: SMM, marketing, ilova, facebook, tugma, sign up, elektron manzil, sahifa, yangi oyna ochish.

Annotation: In this article, schoolchildren are given information about how to manage SMM projects and how to open a page in the Facebook application. During the article, you will witness the history of the creation of Facebook and interesting facts about it.

Keywords: SMM, marketing, application, facebook, button, sign up, e-mail address, page, opening a new window.

Аннотация: В этой статье школьникам дается информация о том, как управлять SMM-проектами и как открыть страницу в приложении Facebook. В ходе статьи вы станете свидетелями истории создания Facebook и интересных фактов о нем.

Ключевые слова: SMM, маркетинг, приложение, Facebook, кнопка, регистрация, адрес электронной почты, страница, открытие нового окна.

KIRISH: Facebook— 2004-yilda Harvard universiteti talabasi Mark Zuckerberg tomonidan va qo'shni xonadagi Eduardo Saverin, Dustin Moskovitz va Chris Hughes tomonidan asos solingan ijtimoiy tarmoq. Saytning butun dunyoda ommalashib ketgani bois, Mark Zuckerberg 23 yoshida dunyoning eng yosh milliarderi deya tan olindi.

Facebook panellari haqida

“Feed Filter Bar“ paneli.

Facebook foydalanuvchilarga yangiliklar tasmaida xronologik ketma-ketlikka o'tishni osonlashtiruvchi yangi funksiyani e'lon qildi. Algoritmli yangiliklar tasmaidan xronologik tartiblangan tasmaga o'tishni osonlashtirishuvchi maxsus „Feed Filter Bar“ paneli ishga tushadi. U yangiliklar tasmaining tepa qismida, tasma qayta yuklanganda chiqadi.

Izoh qoldiruvchi auditoriyani sozlash

Facebook foydalanuvchilari uchun nashr qilgan posti ostiga kim izoh qoldirishini tanlash imkoniyati yaratildi. Tarmoqda maxsus menyu paydo bo'ladi. Unda foydalanuvchi keng va cheklangan profil egalariга izoh qoldirish imkonini beradi. Auditoriyani foydalanuvchining o'zi tanlaydi.

Ta'kidlanishicha, funksiya izoh qoldiruvchi auditoriyani sozlash orqali istalmagan aloqalarni cheklash imkonini beradi. Shu bilan birga, tasmadagi izohlarning ko'payish ehtimolini kamaytiradi[1].

Hotline dasturi

Facebook tinglovchilar bilan aloqa o'rnatish imkonini beruvchi yangi Hotline dasturini sinovdan o'tkazdi. Yangi dastur mualliflarga o'z auditoriyasi bilan muloqot qilish imkonini beradi. Ilovaning auditoriyasi soni cheklanmagan, ulanish xizmati esa bepul. Ammo tajriba davomida ushbu imkoniyat o'zgarishi mumkinligi aytilgan. Foydalanuvchilar kameradan foydalanish va jarayonni yozib olishi mumkin[2].

Ayni paytda Facebook eng ko'p tashrif buyuriladigan saytlarning beshtasidan biri hisoblanadi.

- Mark Sukerberg, 23 yoshda, dunyodagi eng yosh milliarderga aylangan.

- Agar siz “Facebook”ning displey tilini o'zgartirishingiz kerak bo'lsa, uni sozlamalarda qilishingiz mumkin.

Facebook haqida qiziqarli ma'lumotlar

- Mashhur Facebook-ning “Like” tugmachasi dastlab “Awesome” deb nomlangan (o'zbekcha tarjimasida “Ajoyib”). Ushbu tugmachaning nomi tufayli yangi fe'l paydo bo'ldi.

Har bir Facebook foydalanuvchisi o'rtacha...

130 ta do'sti bor;

Ulardan atigi 4-7 nafari bilan doimiy aloqa olib boradi;

U o'zining va boshqa odamlarning “Facebook”dagi sahifalarini ko'rish uchun 55 daqiqadan ko'proq vaqt sarflaydi;

Oyiga kamida 9 marta va “Like” tugmasini bosishadi;

U har xil mavzu uchun oyiga 25 ta sharh yozadi va kamida 25 ta guruh a'zosi;

Oyiga ikkita yangi sahifaning muxlisiga aylanadi.

“Facebook”ning umumiy statistikasi

Facebook foydalanuvchilarining yarmi unga har kuni tashrif buyurishadi;

35 yoshdan katta odamlar eng tez o'sayotgan yosh toifasi;

Har kuni 35 milliondan ortiq kishi o'zlarining statuslarini yangilaydilar;

Har kuni Facebook ijtimoiy tarmog'ining foydalanuvchilari taxminan 250-350 million fotosuratni yuklashadi.

Har oyda foydalanuvchilar tomonidan 2,5 milliard fotosuratlar va 14 million video yuklanadi;

Har hafta foydalanuvchilar o'rtasida 3,5 milliarddan ortiq kontent (havolalar, fotosuratlar, videolar, hikoyalar, eslatmalar va boshqalar) baham ko'riladi (“Share” tugmachasi yordamida);

Umuman olganda, butun dunyo bo'ylab foydalanuvchilar tomonidan har kuni “Facebook”da olti milliard daqiqadan ko'proq vaqt sarflanadi, bu “Google”dan ikki baravar ko'p;

Facebook ko'plab mashhur kitoblar tarjima qilinganidek, dunyoning 70 dan ortiq tillariga tarjima qilingan;

Ijtimoiy media zamonaviy tendensiyalardan xabardor bo'lishga intiluvchi barcha insonlar hayotida muhim o'rin egallaydi. Dunyo bo'ylab ko'plab insonlar foydalanadigan mashhur media vosita — bu Facebook. Facebook nafaqat do'stlar bilan muloqot qilish, yangi do'stlar orttirish, shuningdek, yangiliklarni ulashish hamda internetda biznes yuritish uchun platforma sifatida ham ishlatiladi.

Facebook tarmog'ida sahifa ochish

1. Facebook tarmog'ida sahifa ochish uchun avval shaxsiy akkauntga kirish talab etiladi.

2. Yangi sahifa ochish uchun Create bo'limi orqali Page ko'rsatmasi tanlanadi (1).

3. Sahifa turlaridan biri loyiha maqsadiga asoslangan holda tanlanadi: Business of Brend, Community of public figure. Loyiha uchun Business of Brend tanlab olinadi va Get started tugmachasi bosiladi (2).

4. Sahifa nomi, kategoriyasi, manzili, telefon raqami kabi maydonlar (foydalanuvchi xohishiga ko'ra manzil ko'rsatilmasin bo'limi tanlanishi ham mumkin) to'ldiriladi va Continue tugmachasi bosiladi.

Facebook tarmog'ida sahifani sozlash

1. Loyihaning maqsadidan kelib chiqib, sahifa profili uchun rasm/video tanlanadi. Tanlangan rasm logotip vazifasini bajarib, qoldirilayotgan xabar va izohlarni ajratib turadi (1).

2. Loyihaning maqsadiga muvofiq sahifani bezash uchun sahifa jildiga rasm/video tanlanadi. Bunda kompaniya, brend, xizmat yoki mahsulot tasvirlangan mukammal tasvir joylashtiriladi (2).

3. Sahifaga kelgan xabarlarni o'qish, ular bilan tanishish uchun Inboxdan foydalaniladi (3). 4. Insights orqali foydalanuvchilar va tashrif buyuruvchilar faoliyatini kuzatib borish, amalga

Oshirgan ishlari bo'yicha statistik ma'lumotlar olish mumkin (4).

5. Edit Page Info yordamida sahifa va ma'lumotlarni tahrirlash mumkin (5).

6. Foydalanuvchilarga yana ham kengroq ma'lumot berish maqsadida sahifaning mazmuni boyitiladi. Xizmat turlari, takliflar, rasm/video, xabarlar, tadbirlardan lavhalar, axborotlar, yangiliklar kiritib boriladi (6).

7. Add a button yordamida sahifada tugmachalar yaratish mumkin. Ular yordamida boshqaruvchi bilan bog'lanish, xabarlar yuborish, boshqa sahifaga o'tish, ilovalarni yuklab olish, o'yinlar o'ynash va boshqa amallarni bajarish mumkin (7).

8. "... " tugmachasi orqali sahifani tahrirlash, guruh ochish, reklama yaratish, sahifa qo'shish, do'stlarni taklif etish kabi amallarni bajarish mumkin (8).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. „Facebook yana bir yangi funktsiyani ishga tushirdi“. Bugun.uz. 2021-yil 13-avgustda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2021-yil 3-aprel.

2. „Facebook yangi dasturni sinovdan ўtkaziшни бошлади“. Bugun.uz. 2021-yil 20-avgustda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2021-yil 8-aprel.